

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan

strategiyasi, umuman olganda, ushbu hujjatlar konsepsiya va strategiyada belgilangan vazifalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar suvni tejash samaradorligining yildan-yilga yaxshilanib borishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Adabiyotlar

1. Tilovov T., Tilovova N. Hayot ekologiyasi. Qarshi: "Nasaf" NMIU, 2022. 292 b.
2. Shoto'rayev T., Baratov P. O'rta Osiyoning sun'iy ko'llari. – T.: "Fan", 1972.
3. Husanxo'jayev Z.X. Gidrotexnika inshootlari. –T.: "O'qituvchi", 1978. – 432 b.
4. Shuls V.L., Masharipov R. "O'rta Osiyo gidrografiyasi" – T.: "O'qituvchi", 1969.
5. "O'zbekiston ovozi" №20, 2022-yil 18 may, (32.714).

REZYUME. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati suv omborlarining suv resurslari va ulardan kelajakda foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada viloyat suv omborlardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari va suv tejamkorligi masalalari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются водные ресурсы водохранилищ Кашкадарьинской области и их дальнейшее использование. Также в статье говорится об экономических механизмах использования региональных водохранилищ и вопросах водосбережения.

SUMMARY. This article covers water resources of Kashkadarya region reservoirs and their future use. The article also talks about economic mechanisms of using regional water reservoirs and issues of water saving.

O'ZBEKISTONDA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI GEOGRAFIK JIHATDAN TADQIQ ETISH TAJRIBALARI

K.K.Uzakbaev – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: aholi, xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi, hududiy tashkil etish, ijtimoiy sohalari, tibbiy xizmat ko'rsatish, ta'lim tizimi, ijtimoiy geografik tadqiqotlar.

Ключевые слова: население, география обслуживания, территориальная организация, социальные сферы, медицинское обслуживание, система образования, социально-географические исследования.

Key words: population, geography of service, territorial organization, social spheres, medical care, education system, socio-geographical research.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridanoq aholining turmush darajasini oshirishga, unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni tubdan isloh qilish, yangi boshqaruv shaklining bozor iqtisodiyoti talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu borada Respublika hukumati tomonidan ijtimoiy sohalari rivojiga oid maxsus dastur, ko'rsatma, qaror va farmonlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilayotgani ijobiy natijalar bermoqda.

Ta'kidlash joizki, har qanday iqtisodiy rivojlanish pirovard maqsadda ijtimoiy manfaatlarni nazarda tutadi. Bizning mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat ham, Respublika Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan asosiy maqsadlaridan biri ham aynan shu masalalarga qaratilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonda o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohatlarimizning asosiy maqsadidir. Biz ushbu jabhadagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik. O'zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo'yicha bunday keng ko'lamli ishlar ilgari hech qachon bo'lmagan" [1:199].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilova "IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" bo'limi 37-70 maqsadlarining barchasida respublikamiz hududlarida ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan [2].

O'zbekiston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografik jihatdan tadqiq etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, ularning mazmun va mohiyati, hududiylik va davriylik xususiyatlarini o'rganish ishning maqsadi hisoblanadi. Maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi tadqiqot vazifalarini bajarish ko'zda tutilgan: 1) Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografik jihatdan tadqiq etishning dolzarbligini aniqlash; 2) Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi bo'yicha himoya qilingan dissertatsiyalar, yirik monografiyalarni tahlil qilish va

tizimlashtirish; 3) mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning hududiylik va davriylik xususiyatlarini aniqlash.

Respublikamizda ham ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir qator yo'nalishlari tashkil topdi va rivojlanib kelmoqda. Bu borada O'zbekistonda dastlab aholi geografiyasi, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya masalalarini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunda ijtimoiy sohalari, aniqrog'i aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasida ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar asosan ikkita yo'nalishda evolyutsion tarzda rivojlanib borgan. Birinchi yo'nalish iqtisodiy geografik tadqiqotlar tabiiy sharoitga (tabiat komponentlariga) qishloq xo'jaligi nuqtayi nazaridan baho berishdan boshlanib, hozirda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va mintaqaviy siyosatgacha bo'lgan bir qancha bosqichlardan iborat [3:4].

Ijtimoiy geografik tadqiqotlar sanalgan ikkinchi yo'nalishda dastlab alohida hududlar aholisi, tabiiy harakati, mehnat resurslari kabi ilmiy ishlarga ustuvorlik qaratilgan bo'lsa, aholiga xizmat ko'rsatish, rekreatsiya va turizm geografiyasiga ham e'tibor berilmoqda. E'tirof etish joizki, iqtisodiy geografik tadqiqotlarning deyarli barcha bosqichlari doirasida alohida, maxsus ilmiy ishlar olib borilgan, ammo ijtimoiy geografik tadqiqotlarning aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi yo'nalishida esa hali o'z yechimini kutayotganlari anchagina.

Avvalom bor shuni ta'kidlash kerakki, yirik shaklda, dissertatsiya, monografiya tarzida aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari geografiyasi O'zbekistonda 1990-yillardan boshlab shakllandi. Undan oldin maqola tarzida yoki O'zbekiston SSR Atlasida xaritalar yaratilgan, biroq bevosita alohida maqsad va vazifalar belgilangan holda, butun O'zbekiston hududi, muayyan bir mintaq yoki iqtisodiy tuman hududi aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi, hududiy tashkil etilishi jihatidan tizimli ravishda chuqur o'rganilmagan.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi yetakchi olimlaridan biri bo'lgan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga tizimli e'tibor qaratgan g.f.d., professor A.S.Soliyevning faol harakatlari bilan shakllangan. A.Soliyev ilmiy maktabi doirasida dastlabki shakllangan

sof sotsial mavzulardan biri bu tibbiy xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlashni hududiy tashkil etilishini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hisoblanadi. Bu yo'nalishda bevosita aynan muayyan hududning tibbiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining hududiy tashkil etilishiga to'raligicha bag'ishlangan dastlabki dissertatsiya 1996-yilda himoya qilingan M.I.Nazarovning "Qishloq joylarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy tashkil etilishi (Namangan viloyati misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi [5].

Tadqiqot ishida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalarining turi, hududiy tizimlarining shakllanishi, holati va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik hamda ekologik omillarning roli Namangan viloyati qishloq joylari misolida atroflicha o'rganilgan. Bunda, viloyat hududi gipsometrik xususiyatlariga, ko'ra 3 ta zonaga ajratilib, ularda aholi va qishloqlar soni, tarkibi, katta kichikligi, zichligi, o'rtacha masofalarini tahlili asosida tibbiy xizmatni rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Keyinroq, aniqrog'i 1999-yilda Buxoro viloyati aholisi kasallanishi va hududiy tafovutlariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida N.Q.Komilova aholi salomatligining geografik omillaridan biri sifatida tibbiy xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi, hududiy tashkil etilishi masalalarini o'rgangan [6].

Shuningdek, 2009-yilda Urganch Davlat universiteti tadqiqotchisi M.O.Xamroyev tomonidan ham "Xorazm viloyati ijtimoiy ekologiyasi va aholi salomatligining geografik xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasida bitta asosiy predmet jihati sifatida Xorazm viloyati aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi, hududiy tuzilishining o'ziga xos jihatlari hamda kamchiliklari, istiqboldagi erishish kerak bo'lgan ko'rsatkichlari belgilab chiqilgan [7].

Shu bilan birga, 2012-yilda N.Q.Komilova "O'zbekiston tibbiy geografik sharoitining hududiy tahlili va aholi salomatligi muammolari" [6] mavzusida geografiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Tadqiqot ishida tibbiy geografik sharoitning bitta jihati sifatida hududlarda sog'liqni saqlash tizimining asosiy ko'rsatkichlari, ularni talabga, ehtiyojga mos kelish va kelmaslik masalalariga va kelajakda sohani hududlarda to'g'ri hududiy tashkil etish, ixtisoslashuvni ya'ni tibbiyot tarmoqlariga qarab takomillashtirish masalalariga ma'lum darajada e'tibor qaratgan.

Tadqiqot ishining bevosita hududiy obyekti hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ko'p yillar davomida tadqiqot olib borayotgan g.f.d., professor I.R.Turdimambetov tomonidan 2012-yilda himoya qilingan "Qoraqalpog'iston Respublikasi nozogeografik vaziyatini yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Qoraqalpog'istonda sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash, tuman, shahar va qishloq aholi punktlarida uning rivojlanishini yuksaltirish masalalari muayyan darajada ko'rilgan [8].

Aholiga xizmat ko'rsatishning boshqa tarmoqlariga qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston sharoitida geografik jihatdan nisbatan yaxshi darajada o'rganilgan tarmoq rekreatsiya va turizm xizmat ko'rsatish tarmog'i hisoblanadi va bu jihatdan, ayniqsa so'nggi yillarda iqtisodiy-ijtimoiy geografiya yo'nalishi ixtisosligi doirasida bajarilgan ayrim falsafa doktori dissertatsiyalarini e'tirof etish lozim. Xususan, 2021-yilda himoya qilingan M.M.Mahmudovning "Andijon viloyatida turizmni rivojlantirishning iqtisodiy-geografik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiyasi Andijon viloyati va uning ma'muriy birliklarida mehmonxona xo'jaligi va turizmning boshqa yo'nalishlarini rivojlantirishga baho berilganligi bilan ajralib turadi [9]. Bu borada soha infrastrukturasi Andijon viloyatida rivojlantirish yo'llari, istiqbollari belgilab

berilganligi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega.

Xuddi shunday yo'nalishda Qashqadaryo viloyati doirasida va materiallari asosida 2022-yilda X.X.Jumayev tomonidan "Qashqadaryo viloyati turizm-rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish" mavzusida falsafa doktori dissertatsiyasi bajarilgan. Dissertatsiyada turizm infratuzilmasi, ya'ni sayyohlarga xizmat ko'rsatish tarmog'ining joylarda rivojlanish darajasini bir nechta mezon asosida baholagan. Tumanlardagi ijobiy natijalarni mintaqa miqyosida yanada takomillashtirishni belgilab bergan [10].

Shuningdek, 2022-yilda himoya qilingan Q.T.To'rayevning "O'zbekistonda diniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik asoslari" mavzusidagi falsafa fanlari doktori dissertatsiyasida O'zbekiston miqyosida diniy turizm, ziyorat turizmi rivojlanishining ijtimoiy-geografik jihatlari ko'rilgan [11].

Mamlakatimiz geograflari ichidan aynan aholiga xizmat ko'rsatish sohalariga geografiyasida bajarilgan va alohida ahamiyat kasb etadigan tadqiqot X.M.Nazarov tomonidan 1997-yilda himoya qilingan "O'zbekistonda ilmiy kadrlar tayyorlashning geografik muammolari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi [12]. Mazkur dissertatsiya hozirgi kungacha ham ilm-fan geografiyasida himoya qilingan yagona dissertatsiya hisoblanadi.

Shuningdek, respublikamizda aholiga savdo xizmatini ko'rsatish geografiyasi yo'nalishida ham bajarilgan dissertatsiya mavjud. Bu borada, xususan, 1998-yilda G.A.Bekbulatova tomonidan "Aholiga savdo xizmati ko'rsatishni rivojlantirishning geografik jihatlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan [13].

Yuqorida tahlil qilingan ishlar tarmoq xususiyatiga ega bo'lib, ulardan tashqari O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida birdaniga bir nechta xizmat ko'rsatish tarmoqlarini qamrab olgan holda muayyan hududlarning ijtimoiy rivojlanishiga bag'ishlangan dissertatsiyalar ham bajarilgan. Bu borada, avvalombor Andijon viloyati misolida bajarilgan ikkita tadqiqotni e'tirof etish mumkin. Birinchisi, 2004-yilda M.Mamajonov tomonidan himoya qilingan "Andijon viloyati aholisini ijtimoiy muhofaza qilishning geografik jihatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi [14]. Bu dissertatsiyada 2000-yillar boshida Andijon viloyati hududlarining demografik salohiyati ishlab chiqarish salohiyati bilan bog'liq holatda ijtimoiy sohalarining rivojlanishi, rivojlanish darajasining aholi ehtiyojlariga mos kelish va kelmasligi masalalari ko'rib chiqilgan.

Ikkinchi tadqiqot 2022-yilda M.M.Atajonov tomonidan "Andijon viloyati qishloq joylarida ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirish" mavzusida falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun himoya qilingan [15]. Dissertatsiyada qishloq joylarda ijtimoiy infrastruktura tizimi hududiy tarkibini baholash usuli hududlarning statistik ko'rsatkichlari hamda so'rovnoma natijalari, ularning qiyosiy ustunliklari va muammolarini hisobga olish imkonini beruvchi yondashuv asosida takomillashtirilgan.

Surxondaryo viloyati qishloq joylarining rivojlanishi va hududiy tizimlariga bag'ishlangan A.U.Sattorovning 2009-yilda himoya qilingan "Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi [16].

2017-yilda Sh.B.Qurbonov tomonidan "O'zbekiston qishloq tumanlari rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari" mavzusida falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilingan bo'lib, unda respublikamiz qishloq joylari, xususan qishloq ma'muriy tumanlarida aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishi baholangan [17].

Shuningdek, 2022-yilda X.A.Oblaqlulov “Navoiy viloyati aholisi turmush tarzi va uning ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari” mavzusida falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilgan [18]. Bu dissertatsiyaning asosiy mazmuni aholi turmush tarzining geografik xususiyatlari va tafovutlariga bag‘ishlangan.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosida aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi masalalari ham ayrim yirik tadqiqotlar doirasida ko‘rib chiqilgan. Jumladan, 2003-yilda himoya qilingan Qoraqalpog‘iston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining yetuk namoyondasi g.f.d., professor Ye.K.Umarovning doktorlik ishida muayyan darajada ko‘rilgan va Qoraqalpog‘iston Respublikasining istiqbolda rivojlanishida, aynan ijtimoiy tarmoqlar katta ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan [19].

M.O.Oteuliyevning “Aholi turmush sifatining hududiy

tafovutlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)” mavzusidagi falsafa doktori dissertatsiyasida ham Qoraqalpog‘iston miqyosida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish holatiga va hududiy tafovutiga katta e’tibor qaratilgan [20].

Xulosa. Biroq e’tirof etish joizki, O‘zbekistonda aynan birdaniga bir nechta xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini qamrab olgan holatda tarmoqlarning hududlar bo‘yicha rivojlanganlik darajasiga baho beradigan hamda xizmat ko‘rsatish markazlari hududiy tarmog‘ini aniqlab beradigan, uning holatiga baho berib kelajak istiqbollarini belgilab beradigan tadqiqotlar amalga oshirilmagan va bizning tadqiqotimiz manashu jihatlarga bag‘ishlanishi rejalashtirilgan va uning ilmiy yangiligini, dolzabligini, ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini manashu vazifalarga qaratilganligi belgilab beradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” 2021. 464-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Qurbonov Sh.B. O‘zbekiston qishloq tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Monografiya. – T.: «Mumtoz so‘z», 2019. 226-b.
4. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot (Tanlangan asarlar). Monografiya. – Toshkent: «Kamalak», 2013. 227-b.
5. Nazarov M.I. Qishloq joylarda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning hududiy tashkil etilishi (Namangan viloyati misolida): geogr. fan. nom. diss.. avtoreferati. -Toshkent: 1996. 24-b.
6. Komilova N.K. O‘zbekiston tibbiy geografik sharoitining hududiy tahlili va aholi salomatligi muammolari: geogr. fan. dokt. diss.. avtoreferati. – Toshkent: 2012. 46-b.
7. Xamroyev M.O. Xorazm viloyati ijtimoiy ekologiyasi va aholi salomatligining geografik xususiyatlari geogr. fan. nom. diss.. avtoreferati. –Toshkent: 2009. 26-b.
8. Turdimambetov I.R. Qoraqalpog‘iston Respublikasi nozogeografik vaziyatini yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari: geogr. fan. dokt. diss.. avtoreferati. –Toshkent: 2016. 82-b.
9. Mahmudov M.M. Andijon viloyatida turizmni pivojlanitirishning iqtisodiy geografik xususiyatlari: geogr. fan. bo‘y. falsafa dok. diss.. avtoreferati. -T.: 2021. 45-b.
10. Jumayev X.X. Qashqadaryo viloyati turizm-rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish: geogr. fan. bo‘y. falsafa dokt. diss.. avtoreferati. -T.: 2022. 49-b.
11. To‘rayev Q.T. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlanitirishning ijtimoiy-geografik asoslari: geogr. fan. bo‘y. falsafa dokt. diss.. avtoreferati. -T.: 2022. 45-b.
12. Nazarova X.M. O‘zbekistonda ilmiy kadrlar tayyorlashning geografik muammolari: geogr. fan. nom. diss.. avtoreferati. - T.: 1997. 22-b.
13. Bekbulatova G.A. Aholiga savdo xizmati ko‘rsatishni rivojlantirishning geografik jihatlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’lumotlari asosida): geogr. fan. nom. diss.. avtoreferati. -T.: 1998. 23-b.
14. Mamajonov M. Andijon viloyati aholisini ijtimoiy muhofaza qilishning geografik jihatlari: geogr. fan. nom. diss.. avtoreferati. –Toshkent: 2004. 26-b.
15. Atajonov M.M. Andijon viloyati qishloq joylarida ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirish: geogr. fan. bo‘y. falsafa dok. diss.. avtoreferati. -T.: 2022. 46-b.
16. Sattorov A.U. Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari: geogr. fan. nom. diss.. avtoreferati. –Toshkent: 2009. 26-b.
17. Qurbonov Sh.B. O‘zbekiston qishloq tumanlari rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari: geogr. fan. bo‘y. falsafa dokt. diss.. avtoreferati. -T.: 2017. 47-b.
18. Oblaqulov H.A. Navoiy viloyati aholisi turmuz tarzi va uning ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari: geogr. fan. bo‘y. falsafa dokt. diss.. avtoreferati. -T.: 2022. 44-b.
19. Umarov Ye.K. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ishlab chiqarish kuchlari hududiy tarkibini takomillashtirish muammolari: geogr. fan. dokt. diss.. avtoreferati. -Toshkent: 2003. 48-b.
20. Oteuliyev M.O. Aholi turmush sifatining hududiy tafovutlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida): geogr. fan. bo‘y. falsafa dokt. diss.. avtoreferati. -T.: 2022. 44-b.

REZYUME. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida aholiga xizmat ko‘rsatish sohaları geografiyasi, uning asosiy yo‘nalishlari, hududiy va davriy xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, aholiga xizmat ko‘rsatish geografiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, yirik monografik asarlarning mazmun va mohiyati tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье даётся характеристика развития географии сферы обслуживания в Республике Узбекистан, основных направлений исследования территориальной организации этой отрасли. Анализируются содержание и результаты важнейших научных работ, выполненных в области географии обслуживания в стране.

SUMMARY. The article describes the geography of public service sectors in the Republic of Uzbekistan, its main directions, territorial and periodic features. In addition, the research conducted on the geography of public services, were analyzed content and essence of large monographic works.